


I. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI


2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 11668,6 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 96,0 % ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 5264,1 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 3397,1 ming so‘mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya’ni 50,9 foizi viloyatning 3 ta hududi hissasiga, jumladan, Muborak tumani 22,1 foiz, Qarshi shahri 18,6 foiz, Kitob tumani 10,2 foizi hisobiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m)**




**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari (% da)**



Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan o'tgan yilning shu davriga nisbatan Kitob tumanida 168,4 %, Kasbi tumanida 163,1 %, Mirishkor tumanida 162,5 %, Shahrisabz shahrida 143,4 %, Qarshi tumanida 124,4 % va Muborak tumanida 115,6 % tashkil qildi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori**
(ming so‘mda, % da)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Muborak tumani 28462,8 ming so‘m, G‘uzor tumani 9302,9 ming so‘m, Qarshi shahri 7604,1 ming so‘mni tashkil etdi. Aksincha past ko‘rsatkichni Qamashi tumani 639,0 ming so‘mni, Yakkabog‘ tumani 892,2 ming so‘mni va Shahrisabz shahar 1296,1 ming so‘mni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>ulushi yakunga nisbatan, %</i>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	11668,6	96,0	100,0
shu jumladan:			
Markazlashgan investitsiyalar:	1645,0	83,4	14,1
byudjet mablag‘lari	1047,5	163,5	52,1
O‘z.Res. Moliya vazirligi huzuridagi suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi	235,9	82,8	16,6
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	-	-	-
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	361,6	38,9	31,3
Markazlashmagan investitsiyalar	10023,6	98,5	85,9
korxonalarining o‘z mablag‘lari (mahalliy byudjetni qo‘shgan holda)	2815,3	107,5	28,1
tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag‘lari(homiy-rezidentlar mablag‘larini qo‘shgan holda)	583,0	96,2	5,8
horijiy investitsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	4902,6	91,1	48,9
aholi mablag‘lari	1722,7	109,3	17,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich 2022- yil yanvar-sentabr oylarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobiga 4 902,6 mlrd. so‘m, ya’ni yakunga nisbatan 48,9 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarini



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 4902,6 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,1 foizni tashkil qildi. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda G‘uzor tumanida 1100,8 mlrd.so‘m va Kitob tumanida 839,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Aksincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha past natijalar Yakkabog‘ 3,5 mlrd va Chiroqchi tumanlarida 5,5 mlrd. so‘m to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya
va kafolatlanmagan kreditlar**

(mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To‘g‘ridan -to‘g‘ri xorijiy investi- tsiya	shu jumladan:	Kafolat- lanmagan kreditlar
		Investi- tsiya	Kredit			
Viloyat bo‘yicha	5264,1	1870,5	3393,6	4902,6	1870,5	3032,1

shaharlar:

Qarshi	639,2	350,5	288,7	427,6	350,5	77,1
Shahrisabz	69,1	12,5	56,6	69,1	12,5	56,6

tumanlar:

G‘uzor	1103,5	10,5	1093,0	1100,8	10,5	1090,3
Dehqonobod	13,8	9,2	4,7	13,7	9,1	4,6
Qamashi	9,7	2,5	7,2	8,1	2,5	5,6
Qarshi	296,4	52,7	243,7	292,0	52,7	239,3
Koson	188,6	2,9	185,8	154,1	2,9	151,2
Kitob	840,6	782,9	57,7	839,3	782,9	56,4
Mirishkor	149,5	121,0	28,5	149,5	121,0	28,5
Muborak	1632,7	354,6	1278,1	1630,4	354,6	1275,8
Nishon	172,9	74,2	98,7	74,4	74,2	0,2
Kasbi	128,1	97,1	31,0	128,1	97,1	31,0
Chiroqchi	6,2	-	6,2	5,5	-	5,5
Shahrisabz	10,3	-	10,3	6,6	-	6,6
Yakkabog‘	3,5	-	3,5	3,5	-	3,5

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

	<i>Jami mlrd. so‘m</i>	<i>Ulushi, foizda</i>	<i>Davlat</i>	<i>Ulushi, foizda</i>	<i>Nodav- lat</i>	<i>Ulushi, foizda</i>
--	--------------------------------	---------------------------	---------------	---------------------------	-----------------------	---------------------------

Jami, mlrd. so‘m	11668,6	100,0	1604,1	100,0	10064,5	100,0
-------------------------	----------------	--------------	---------------	--------------	----------------	--------------

shu jumladan:

qurilish-montaj ishlari	6067,1	52,0	1299,3	81,0	4767,7	47,4
-------------------------	--------	------	--------	------	--------	------

mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	4534,5	38,9	122,4	7,6	4412,2	43,8
--	--------	------	-------	-----	--------	------

boshqa xarajatlar	1067,0	9,1	182,4	11,4	884,6	8,8
-------------------	--------	-----	-------	------	-------	-----

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 2022- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish-montaj ishlariga yo‘naltirilgan ulushi 52,0 foizni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**

(mlrd. so‘m)

	<i>Yanvar-sentabr</i>			
	<i>2021- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2022- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>


Jami:	10611,8	100	11668,6	100,0
--------------	----------------	------------	----------------	--------------

*shu jumladan: iqtisodiy faoliyat
turlari bo‘yicha*

qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	763,3	7,2	1078,5	9,2
tog‘-kon sanoati	37,1	0,3	27,2	0,2
qayta ishslash sanoati	5768,9	48,0	6591,3	28,6

	Yanvar-sentabr			
	2021- y.	Umumiy hajmga nisbatan %da	2022- y.	Umumiy hajmga nisbatan %da
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	287,1	2,7	159,9	1,4
suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish	12,1	0,4	91,8	0,1
qurilish	640,0	3,2	549,8	5,1
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	356,3	3,1	383,2	0,1
tashish va saqlash	726,5	6,2	411,5	2,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	42,3	0,2	41,7	0,5
aloqa va axborotlashtirish	47,2	0,6	84,6	0,8
moliya va sug‘urta faoliyati	19,0	0,2	13,8	0,1
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar	10,7	-	4,0	1,0
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	0,2	-	-	-
ma’muriy va qo‘srimcha xizmatlar	-	-	1,7	-
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta’minot	287,2	2,7	317,2	2,7
ta’lim	191,5	1,8	316,3	2,7
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	412,4	3,9	121,2	1,0
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	0,5	-	4,5	-
uy-joy qurilishi	725,8	6,8	886,5	7,6
boshqa faoliyat turlari	266,5	2,5	583,9	5,0

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida 27,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 0,2 %) tashkil etdi. Uy-joy qurilishida 886,5 mlrd. so'm (7,6 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda 383,2 mlrd. so'm (0,1 %), tashish va saqlashda 411,5 mlrd. so'm (2,9 %), qurilishda 549,8 mlrd. so'm (5,1 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 121,2 mlrd. so'm (1,0 %), davlat boshqaruvi va

mudofaasi, majburiy ijtimoiy ta'minotda 317,2 mlrd. so'm (2,7 %), ta'limda 316,3 mlrd. so'm (2,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 41,7 mlrd. so'm (0,5 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Ijtimoiy soha obyektlari qurilishi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 774,9 ming kv.m bo'lgan 4424 ta, shundan qishloq joylarida 306,5 ming kv.m 1618 ta uy-joylar foydalanishga topshirildi.

Qurilish faoliyati

2022- yil yanvar-sentabr oylarida 5498,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi.


Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 5226,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 95,1 % ni (2021- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 122,7 % ni) tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



■ Davlat mulki ■ Nodavlat mulki

Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
 (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %da)



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumanida 119,4 %, Qarshi shahrida 119,1 %, Qamashi tumanida 119,0 % kuzatildi. Muborak (74,7 %), G'uzor (64,9 %) tumanlarining va Shahrisabz shahrining (85,7 %) o'sish sur'atlarida pasayish kuzatildi.